



## THE SHRINES OF JIZZAKH OASIS (AS AN EXAMPLE OF FORISH)

*Sherzod Abdusatorov*

*Senior lecturer, PhD*

*National University of Uzbekistan*

*Tashkent, Uzbekistan*

*E-mail: [sherzodabdusattorov2@gmail.com](mailto:sherzodabdusattorov2@gmail.com)*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** pilgrimage, Andagin, white mangit, black mangit, Narvoy.

**Received:** 10.11.24

**Accepted:** 12.11.24

**Published:** 14.11.24

**Abstract:** In this article, the shrines of Jizzakh oasis in the Forish district are analyzed based on historical and ethnographic field materials. In this regard, the place and importance of holy shrines, which are part of material and spiritual wealth, is considered valuably. In the process of further development of pilgrimage tourism in the oasis, the assessment of this type of tourism resources, the development of special routes, and the historical and ethnographic aspects of the formation of pilgrimage tourism were studied.

## JIZZAX VOHASINING MUQADDAS QADAMJOLARI VA ZIYORATGOHLARI (FORISH TUMANI MISOLIDA)\*

*Sherzod Abdusatorov*

*Katta o'qituvchi, PhD*

*O'zbekiston Milliy universiteti*

*Toshkent, O'zbekiston*

*E-mail: [sherzodabdusattorov2@gmail.com](mailto:sherzodabdusattorov2@gmail.com)*

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** ziyorat, qadamjo, Andagin, oq mang'it, qora mang'it, Narvoy.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Jizzax vohasi Forish tumanida joylashgan ziyoratgohlari va qadamjolari tarixiy va etnografik dala materiallari asosida tahlil qilingan. Bunda moddiy va ma'naviy boyliklarning bo'lagi hisoblangan muqaddas ziyoratgohlarning o'рни va ahamiyati katta

\* ALM – 202403110244 sonli “Tarixiy ob’ektlari va tabiiy maskanlar uyg’unligi asosida Forish tumani turistik salohiyatini oshirish” mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

hisoblanadi. Vohada ziyorat turizmni yanada rivojlantirish jarayonida mintaqaning ziyorat turistik resurslarini baholash, ularni birlashtiruvchi maxsus marshrutlarini ishlab chiqish va joylarda ziyorat turizmning shakllanishining tarixiy-etnografik jihatlari o'rganilgan.

---

## СВЯТЫЕ МЕСТА И СВАТИЛИЩА ДЖИЗАКСКОЙ ДОЛИНЫ (НА ПРИМЕРЕ ФОРИШСКОГО РАЙОНА)

*Шерзод Абдусаторов*

*Старший преподаватель, PhD*

*Национального университета Узбекистана*

*Ташкент, Узбекистан*

*E-mail: [sherzodabdusattorov2@gmail.com](mailto:sherzodabdusattorov2@gmail.com)*

---

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** Паломничество, место паломничества, Андагин, Ок-мангыт, Кара-мангыт, Нарвой.

**Аннотация:** В данной статье на основе исторических и этнографических полевых материалов проанализированы святыни и места паломничества, расположенные в Форишском районе Джизакской оазиса. Здесь важное значение имеют святыне места паломничества, которые считаются частью материального и духовного богатства. В процессе дальнейшего развития паломнического туризма в оазисе были изучены туристические ресурсы паломничества, разработаны специальные маршруты, объединяющие эти места, а также исследованы историко-этнографические аспекты формирования паломнического туризма на местах.

---

**Kirish.** O'zbekiston dunyoning muhim sivilizatsiya beshiklaridan biri sifatida, azaldan jahon tamadduniga ulkan hissa qo'shib kelgan. Bunda moddiy va ma'naviy boyliklarning bo'lagi hisoblangan muqaddas ziyoratgohlarning o'rni va ahamiyati katta hisoblanadi. Ular xalqning milliy boyligi sifatida dunyo madaniyatining mushtarak qismiga aylangan. "O'zbekiston sayohat va ziyorat uchun qulay mamlakatlardan biridir. Chunki ona zaminimizda butun dunyoga ma'lum va mashhur bo'lgan ajdodlarimiz mangu kunim topganlar. Ular qoldirgan boy ma'naviy-madaniy merosga xalqaro maydonda qiziqish juda katta"[1]. Shuning uchun ham bugungi kunda Respublikamiz hukumati tomonidan o'zbek xalqining qadimiy tarixi va boy madaniy merosini tiklash hamda uni dunyo jamoatchiligiga yetkazish borasida ko'plab amaliy ishlar bajarilmoqda. Bu borada 2019 yil 22 fevral kuni Buxoro shahrida "Ziyorat turizmi bo'yicha birinchi xalqaro forum"ning tashkil qilinishi ushbu masala yuzasidan olga tashlangan qadam hisoblanadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Jizzax vohasidagi muqaddas qadamjolar va ziyoratgohlarga doir ilmiy izlanishlar arxitektura, san'atshunoslik, arxeologiya va boshqa fanlar nuqtai nazaridan qisman o'rganilgan bo'lsada, ziyoratgohlarning jamiyat ma'naviy hayotida tutgan o'rni, o'tkaziladigan marosimlar va ularning mintaqaviy xususiyatlari etnologik jihatidan tadqiq qilinmagan. Asosiy qilingan ishlardan F.Sh.Aqchayevning "Jizzax vohasidagi muqaddas qadamjolari va ziyoratgohlari"[2], Z.Q.Abidovanning "Xorazm vohasi ziyoratgohlari va qadamjolari (tarixiy-etnologik tadqiqot)"[3], F.B.Xayitovanning "O'zbek xalqi etnomadaniyatida ziyorat va ziyoratgohlar o'rni (Qashqadaryo vohasi misolida)"[4], Sh.B.Jumayevaning "Toshkent viloyati ziyoratgohlari: rivojlanish bosqichlari va o'ziga xos xususiyatlari"[5], S.N.Jo'rayevaning "O'zbekistonning janubiy hududidagi ziyoratgohlar tarixi va ularning mahalliy aholi hayotidagi tutgan o'rni"[6] va boshqa ilmiy tadqiqot ishlarini misol qilib keltirish mumkin. Lekin Jizzax vohasi xususan, Forish tumanidagi ziyoratgohlar va muqaddas qadamjolar haqida deyarli ma'lumotlar berilmagan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqotning yetakchi ilmiy konsepsiyasi muammoga sivilizatsion yondashuv ekanligini hisobga olgan holda, o'rganilayotgan muammoni to'g'ri hal etishda ilmiylik, bilishning xolis, tarixiy, qiyosiy va tanqidiy o'rganish, tizimlilik tamoyillari, kulturogenез prinsiplariga amal qilindi.

**Tahlil va natijalar.** Ziyoratgoh so'ziga O'zbek tilining izohli lug'atida quyidagicha ta'rif berilgan: ziyoratgoh – arabcha, forsha so'z bo'lib, sig'iniladigan, ziyorat qilinadigan joydir. Shuningdek, ziyorat qilinadigan joy, tabarruk qadamjo (aziz-avliyolarning maqbarasi yoki tug'ilgan, yashagan joyi) degan ma'nolarni ham beradi[7].

Bugungi kunda Jizzax viloyatida 372 madaniy meros obyekti, xususan, tarixiy obidalar va ziyoratgohlar, arxeologik yodgorliklar, monumental yodgorliklar faoliyat ko'rsatmoqda[8]. Jumladan, "Hazrati Eshon xalifa", "Jondahor ota (Mavlono Gerkushoh)", "Xo'ja Bog'bon ota", "Narvoy ota", "Xonbandi" ziyoratgohlari va boshqa tarixiy maskanlarni misol keltirish mumkin.

Hazrati Eshon xalifa ziyoratgohi 2015-yilda madaniy meros obyekti sifatida muhofaza qilinib, davlat reestriga kiritilgan va mahalliy aholi uchun eng muhim maskanlardan biri hisoblanadi. Bu tabarruk aholi punkti Forish tumani Andagin qishlog'ida joylashgan. Qadamjo Jizzax shahridan 120 km, tuman markazi Bog'dondan 45 km shimoli-g'arbda joylashgan.

Andagin nomining etimologiyasi haqida bir necha talqinlar mavjud. Shulardan biri, akademik A.Muhammadjonovga taaluqli bo'lib, unga asosan qadimiy sug'd tiliga xos bo'lgan Andagin so'zi (andi "yaqin", gin "suv"), suv yaqin ma'nosini beradi. Olim Andagin, Andigon, Andijon kabi toponimlarning sinonim ekanligini ta'kidlaydi. Andagin so'zining ma'nosi qishloq aholisi oqsoqollarining so'zlariga qaraganda "sal shoshilmoq" degan ma'noni anglatadi[9]. Ushbu hududda olib borilgan arxeologik tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, qishloqda taxminan IV-V

asrlarda qurilgan, atrofi devor bilan o‘ralgan va mahalliy xalqni xavf-xatardan saqlash uchun xizmat qilgan, qadimiy istehkomli qal’a va qo‘rgon mavjud bo‘lgan.

“Hazrati Eshon xalifa” tarixiy yodgorligi Andagin qishlog‘ining o‘rta qismida joylashgan. Bu manzilni so‘nggi makon tutib, avliyolik maqomiga erishgan aziz zotning ismlari Jaloliddin ibn Abdukarim bo‘lib, XIX asrda yashagan va mahalliy xalq orasida Eshoni xalifa nomi bilan mashhur bo‘lgan. Niyati xolis kishi bo‘lgan, haq va haqiqatga erishish yo‘lida astoydil harakat qilgan. Buxoroning o‘z davrida mashhur bo‘lgan Mir Arab madrasasida o‘qigan, mukammal ta‘lim olgan, zohiriy ilmlarni maroq bilan o‘rgangan. O‘z davrining donishmandi bo‘lgan, ushbu mo‘tabar shaxs, odam va olam mohiyati ustida bir umr mushohada yuritgan, dunyoni mukammal, hayotni to‘kis, insonni barkamol ko‘rishni orzu qilgan. Rivoyat qilishlaricha, e‘tiqodi bilan o‘zgalarga namuna bo‘lgan, butun hayotini ilm, ma‘rifat va donishmandlikka bag‘ishlagan aziz zotning hujralarida eski bo‘yra, kitoblar taxlanadigan taxta va yostiqdand boshqa narsasi bo‘lmagan.

Domla Jaloliddin naqshbandiya tariqatining voha bo‘ylab keng tarqalishida xolis xizmat qilgan. Naqshbandiya islom dinining falsafiy ta‘limotlaridan bo‘lib, bu yo‘lga kirganlar o‘zlarini ham zohiran, ham botinan poklab, ya‘ni ichki va tashqi illatlardan poklab, Alloh rizosiga erishish, haqiqatni anglash uchun o‘zlarini doimo takomillashtirib borganlar. Shu sababdan, domla Jaloliddin hazratlari karomat sohibi bo‘lishlari bilan birga, mehnat qilish evaziga ro‘zg‘or tebratishlikni xush ko‘rgan. Ul kishi butun umri davomida asosan tariqat odoblaridan saboq berib, xalqni dinga targ‘ib etish va islomiy axloqqa chorlash bilan shug‘ullangan. Shariat ahkomlariga nafaqat o‘zlari, balki boshqalarni ham to‘la va mukammal amal qilishga da‘vat qilgan.

Rivoyat qilishicha, kunlarning birida pirini ziyorat qilish uchun Qizilqum cho‘lidan qozoq muridlaridan biri, urug‘ining eng boy-badavlat kishisi bilan birga uylariga tashrif buyurishadi. Mehmonlarni o‘zi kutib olib, ulovlarini bog‘laydi va qo‘llariga suv quyib, uyga taklif kiladi. Piri komil xizmatga chiqqan vaqtida boy sherigidan “Eshon qani, nimaga kelmaydi?” deb so‘raydi. Muridi boyga, xizmat qilayotgan kishi eshonning o‘zi bo‘ladi, deganda, boyning ko‘nglida “xizmatkor” eshonga nisbatan shubha paydo bo‘ladi, ammo sir boy bermaydi.

Bu voqeadan ko‘p vaqt o‘tmasdan boyning qorni damlanib, shisha boshlaydi va u qiyin ahvolga tushib qoladi. Duolari mustajob bo‘ladigan piri komilga bu holat ayon bo‘lgan va u kishi eshikdan kirishlari bilan, qozoq muridi boy gustohlik qilganligi uchun uzr so‘rab murojaat qiladi. Eshon hazrati miyig‘ida kulib, hassasi uchini boyning qorniga tegizadi va bir oz vaqt o‘tgandan keyin boy o‘ziga keladi. Shu voqeadan keyin, boy qozoq umrining oxirigacha har yili ziyoratga kelib, qo‘y suyib xudoyi qilishni kanda qilmagan. Donishmandlar deydilarki, “avliyo Xudo emas Xudo undan judo emas”. Avliyolar albatta, o‘z karomatlari bilan aziz bo‘lgan.

Ziyoratgohning hozirgi hududi salkam 0,5 gektarni tashkil etadi. Tarixiy yodgorlik usti tom bilan yopilgan uchta xonadan iborat, uning ikkitasida sag‘ana bor, uchinchisi chillaxona vazifasini

bajargan. Ziyoratgoh hovlisida buloq bor va mo'jazgina hovuz qurilgan. Chashma suvining o'ziga xos shifobaxsh xususiyatlari bo'lib, undan doimo tozasuv oqadi. Hovuzda ko'plab relikt hisoblangan gulmohi baliqlar mavjud.

Asosiy binoga kirishdagi chap tomonda joylashgan xonada ayol kishining qabri joylashgan. Hech kimga sir emaski, har doim dunyo yaralibdiki, yaxshilik bilan yomonlik kurashib keladi. Rivoyat qilinishicha, ayol kishi yosh bolasi bilan johil yovlardan qochib, ularning qo'liga tushmaslik uchun Yaratgandan najot so'rab iltijolar qilgan va shu joyda yer yorilib bolasi bilan birga yerga kirgan. Keyinchalik, avliyolik maqomiga erishgan domla Jaloliddin u kishining arvohi bilan (muroqaba usulida) g'aybona uchrashadi va o'sha uchrashgan o'rinda qabr paydo qilinadi. Mahalliy aholi orasida yer qa'riga bolasi bilan birga g'oyib bo'lgan ayol "Hazrati Bibi Ro'shnoyi" nomi bilan mashhurdir.

Ushbu tabarruk maskanning paydo bo'lishi, uning muqaddas va mo'tabar ziyoratgohga aylanishiga domla Jaloliddin avliyo sababchi bo'lgan. Hovli ichkarisida diniy va milliy marosimlarni o'tkazish uchun yangi bino qurilgan. Ziyoratgoh hovlisidan tashqarida, dam oluvchilar va ziyoratchilar uchun qulaylik yaratish maqsadida oshxona binosi qurilgan. Milliy marosimlar vaqtida taom tayyorlash uchun barcha oshxona jihozlari muhayyo qilingan. So'nggi yillarda hashar yo'li bilan tarixiy yodgorlikning ichki va tashqi tomoni tekislangan, mevali va manzarali daraxtlar o'tkazilib obod qilingan.

Ziyoratgoh hovlisida bir nechta qadimiy tut va yong'oq daraxtlari bor. Keksa tut daraxtining yoshi taxminan 250-300 yilni tashkil qiladi. Hovli atrofi devor bilan o'ralgan. Asosiy bino XIX asrda qurilgan va so'nggi marta o'tgan asrning 60-yillarida Abdushukur maxsum homiyligida qayta ta'mirlangan. Hozirgi kunda "Hazrati Eshon xalifa" ziyoratgohi qisman ta'mirtalab holatiga kelib qolgan. Hech qanday shubha yo'qki, mahalliy xalqning xayr-ehsonlari va saxovatpesha insonlarni say'-harakatlari bilan ziyoratgoh qayta ta'mirlanadi, natijada obod va masrur maskanga aylanadi.

Forish tumanining tog'li Garasha qishlog'ida yana bir Muhammad Sharif (Mavlono Grekushoh) nomi bilan aziz bo'lgan ikkita ziyorat manzili bor. Birinchisi, u kishining xonaqohi bo'lsa, ikkinchisi "Jondahor ota" ("jonga rohat beruvchi", "jonga darmon beruvchi" ma'nosida) ziyoratgohi hisoblanadi. Ziyoratgoh nazoratchisi, Saidmurod ota Tolipov shunday yozadi:

"Muhammad Sharif (Mavlono Grekushoh) payg'ambarzodalardan bo'lib, payg'ambarimiz (s.a.v.)ning qizi Bibi Fotimadan chiqqan Imom Husayn, Imom Zaynul Obidin avlodlaridan bo'lib, Xoja Ahmad Yassaviy hazratlarining shogirdlaridan edi. Ustozlari uni bir oq tuyaga mindirib fotiha berib jo'natadilar. Tuyalari o'sha "Jondahar ota" manzilgohiga kelib to'xtaydi va o'sha joyga tushib, suvsiz joyga asolarini urib chashmani chiqaradilar, so'ngra bu joyda makon tutadi".

Garasha (Mavlono Grekushoh) qishlog'ining nomi "tugun yechuvchi" so'zidan olingan bo'lishi mumkin. Ba'zan buloq atrofida minglab odamlar uchun tepalik-qo'rg'on quriladi. Rivoyatlarga ko'ra, bu qurilish XII asrda amalga oshirilgan.

Axborotchilarning ma'lumot berishicha, "buloq suvi shifobaxsh xususiyatiga ega bo'lib, masalan, sariq kasallikni davolaydi, teridagi turli dog'larni ketkazadi, quturgan it tishlaganlar shu suvda cho'miladi, bu buloqning suvidan ichish turli oshqozon-ichak kasalliklariga ham foydalidir"[10].

Garasha qishlog'i keksalari Umarxon bobo Ixtiyorov, Homid bobo Abdurahmonov, Rauf bobo Rashidov, Abdurahmon bobo Asrorov, Sulaymon bobo Tovboyevlar tomonidan saqlab kelingan juda ko'hna arab imlosidagi ikki hujjat 2000-yilda respublika Madaniyat va sport ishlari vazirligiga taqdim etilgan bo'lib, ular o'rganib chiqilgan.

Birinchi hujjatning orqasida muhri bor, lekin u kimning muhri ekanligini aniqlash imkoni bo'lmagan. Hujjatda keltirilgan sana 841 hijriy yil hisobi bo'lib, milodiy 1438 yil, ya'ni Movarounnahr poytaxti Samarqandda Sulton Mirzo Ulug'bek hukmronlik qilayotgan davrga to'g'ri keladi. Unda, jumladan, quyidagilar yozilgan: "Hijriy 841-yil rabi ul-avval oyining 12-kunida sulton yozgan guvoynomada (bu yerda Mirzo Ulug'bek nazarda tutilmoqda) Mavlono Garishoh yaqinlaridan bo'lgan hoji Shamsiddin Muhammadga So'g'di Kalon mavzesidagi Marvak qishlog'i suyurg'ol tarzida taqdim etilgan.

Ikkinchi hujjatda "909-hijriy (1503 milodiy yili) Mavlono Garishoh avlodidan bo'lgan kishiga hadya qilingan... (o'qib bo'lmadi). So'g'di Kalon tumanidagi qishloq va yerlarni suyurg'ol tarzida berilgan" deyiladi.

Mustaqillik yillarida Muhammad Sharif xonaqosi, masjidi qayta ta'mirlanib, yangicha qiyofa kasb etgan. "Jondahar ota" ziyoratgohida buloqni muhofaza qilish, obodonlashtirish yuzasidan katta ishlar qilingan. Garasha qishlog'ining tarixi haqida shu yerda tug'ilib, kamol topgan ko'plab ziyolilar ham tarixiy, adabiy va etnografik maqolalar yozishgan. Shoir va jurnalist, jamoat arbobi Sa'dulla Hakim Garasha afsonalari ta'sirida yaxshi she'rlar bitganligi hammaga ma'lum.

Forish tumani hududida joylashgan Narvoy qishlog'i Nurota tog' tizmasining janubiy daldashtlaridagi eng katta qishloqlardan biri hisoblanadi. Qishloqning tabiati nihoyatda go'zal, ikki tomonida baland adirliklar, sersuv buloqlari ko'pdir. Qishloqning eng yuqori qismida "Suvqo'shilish", "Narvoy ota", "Haydarboyning hayoti", "Qo'nishboyning ravoti", "To'ng'izlik mulla Ahmad boboning bog'i", "Kenjaboyning hayoti", "Allayorboyning olmazori", "Keldiyorboyning o'rikzori" deb atalguvchi mevali va manzarali daraxtzorlardan iborat go'zal bog'lar mavjud. Bu bog'lar yakka xo'jalikni tugatish yillarida davlat mulkiga aylantirilgan[11].

“Narvoy ota” qabristonida qabrlar ustiga qo‘yilgan beshik shaklidagi marmar toshlar va undagi yozuvlar qishloq tarixiga guvohlik beradi. Yozuvlar arab va fors tilida yozilgan. Axborotchilar ma’lumot berishicha, 2003 yilda narvoyliklar iltimosiga asosan, olimlar Faxriddin va Muzaffar eshonlar qabr toshlaridagi yozuvlarni o‘qib, sharhlab bergan.

Birinchi qabrtoshida: “Qutlug‘ Xo‘ja qizi bibi Qutlug‘ Tekin 77 yoshda bandalikni bajo keltirdi”, deb yozilgan ed.

Ikkinchi qabrtoshda: “Shamsutdin Sayfutdin o‘g‘li 867 hijriy yilda qo‘yildi”, deb yozilgan[12].

Qishloq nomining “Narvoy” deb atalishi haqida ham yozma manbalarda ma’lumotlar topilmagan. Rivoyatlarga ko‘ra, qishloq aholisining kelib chiqishi o‘zbeklarning 92 urug‘idan biri mang‘itlarga borib taqaladi. Mirzo Ulug‘bekning “To‘rt ulus tarixi” asarida yozilishicha, “Mang‘it” so‘zi “manglayli ot” degan ma’noni bildiradi. Otning hammasida ham manglay bo‘ladi, lekin gap otning manglayidagi qashqasi haqida ketmoqda. Otning oq qashqasi borini minguvchilar “oq mang‘it”, qora qashqasi borini minguvchilarni “qora mang‘it” deb atalgan. Shuning uchun axborotchilarning aytishicha, ana shu mang‘it urug‘idan bir guruhi Narvoy qishlog‘iga ko‘chib kelib joylashganida ular orasida eng katta yoshdagi inson Narvoy bobo bo‘lgan. U kishi shayx bo‘lib, hozirgi “Narvoy ota ziyoratgohi” o‘rnida yashagan va shu yerdagi g‘orga kirib g‘oyib bo‘lgan ekan[13].

Alisher Navoiy asarlari lug‘atida “narvoy” “sersoya, daraxtlar tig‘iz o‘sadigan joy” ma’nosini bildiradi, deb ko‘rsatilgan. Haqiqatan ham “Narvoy ota”da behisob buloq suvlari biri-biriga ko‘shilib katta chashma hosil qilib oqib yotadi. Chashmaning ikki yoqasida o‘n metrdan ellik metrgacha kenglikda sersoya, sarvqomat, qurilishbop manzarali daraxtlarning borligi yuqoridagi lug‘aviy ma’noni tasdiqlaydi[14].

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytish mumkinki, Jizzax vohasi xususan, Forish tumani turli shakldagi ziyoratgoh va qadamjolarga boy mintaqa hisoblanadi. Ular qadimdan voha aholisi tomonidan asrab-avaylab kelinganligini kuzatishimiz mumkin. Ziyoratgohlarda insonlar ajdodlar an’anasini davom ettirish, shaxsiy hayotidagi muammolarni bartaraf etish va jamoaviy tadbirlar sababli turli ko‘rinishdagi marosimlar o‘tkazib kelishgan. Shuningdek, ziyoratgohlar, qadamjolar va ular bilan bog‘liq urf-odatlar, marosimlar o‘zida Forish tumani tarixi va etnografiyasini aks ettirgan.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev. O‘zbekistonda turizmni yanada rivojlantirish masalalari haqida // Xalq so‘zi. 2017 yil 4 oktabr. 199 (6893)-son.
2. Ақчаев Ф.Ш. Жиззах воҳаси муқаддас қадамжолари ва зиёратгоҳлари. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2020.

3. Абидова З.Қ. Хоразм воҳаси зиёратгоҳлари ва кадамжолари (тарихий-этнологик тадқиқот). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2018.

4. Хайитова Ф.Б. Ўзбек халқи этномаданиятида зиёрат ва зиёратгоҳлар ўрни (Қашқадарё воҳаси мисолида). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Қарши, 2021.

5. Жумаева Ш.Б. Тошкент вилояти зиёратгоҳлари: ривожланиш босқичлари ва ўзига хос хусусиятлари. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Термиз, 2022.

6. Жўраева С.Н. Ўзбекистоннинг жанубий ҳудудидаги зиёратгоҳлар тарихи ва уларнинг маҳаллий аҳоли ҳаётида тутган ўрни. Тарих фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2022.

7. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi nashriyoti, B. 148.

8. <https://uzbekistan.travel/uz/o/jizzax-viloyatiga-tashrif-buyurish-uchun-10-sabab/>

9. Dala yozuvlari. Jizzax viloyati, Forish tumani, Andagin qishlog‘i, 2024 yil.

10. Dala yozuvlari. Jizzax viloyati, Forish tumani, Garasha qishlog‘i, 2024 yil.

11. Эралиев Б, Остонақулов И, Ақчаев Ф. Ўзбекистон зиёратгоҳлари ва кадамжолари. 4-китоб. – Тошкент: Туронзамин, 2017. – Б. 111.

12. Dala yozuvlari. Jizzax viloyati, Forish tumani, Narvoy qishlog‘i, 2024 yil.

13. Dala yozuvlari. Jizzax viloyati, Forish tumani, Narvoy qishlog‘i, 2024 yil.

14. Эралиев Б, Остонақулов И, Ақчаев Ф. Ўзбекистон зиёратгоҳлари ва кадамжолари. 4-китоб. – Тошкент: Туронзамин, 2017. – Б. 112.